



asarlari shu darajada emotsional ruhda yozilgan uni o‘qigan o‘quvchiga birinchi marta o‘qiganidayoq ta’sir etadi. Oddiy xalqning ezilganini qanday og‘ir zamonlarni boshidan kechirganini qalban his etadi.

Analitik metod. Ushbu metod shoirning mahoratini, so‘z boyligini, tasavvurining qay darajada keng ekanligini ma’lum ma’noda anglatadigan metoddir. Shoir she’rda juda ko‘p epitetlarni qo‘llaydi va bu ham aynan she’rning tub ma’nosini anglashga yordam beradi. Tog‘larday haybatli zindonlar, zulm qo‘li, dorning ipi, xom miyya, jannat va’dasi, tor katak, tariq tillar, g‘azab olovi shu kabi epitetlar she’rda botiniy ma’nolarni ochishda bizga yordam beradi. Shoir she’rning so‘ngida Temzadagi to‘lqinlarning toshishi bizda ham bo‘ladi deb tugatadi. Chunonchi, bu bashorat amalga oshishi uchun yillar va qanchadan qancha odamlarning umri qurbon bo‘ldi. Shoirilar she’ridagi ma’nolarni anglay olsangiz, siz o‘qigan to‘rt qatorlik she’r ham katta bir romandek tuyiladi.

Psixologik metod. Bilamizki, psixologiya bu insonlarning ruhiy holatini o‘rganadi. Bu metod esa she’rning psixologik ta’sir imkoniyatlarini o‘rganiladi. Adabiyot olamiga dahldor har qanday inson u xoh injener bo‘ladimi, xoh dehqon bo‘ladimi, xoh yozuvchi bo‘ladimi biror asar o‘qisa o‘sha asarning ma’lum qismida yashaydi, undan ta’sirlanadi, qahramonga qo‘shilib eziladi, achinadi, xursand bo‘lsa, quvonadi xullas shu asar bilan yoki asar tasirida qisqa bir muddat yashaydi. Biz bu metodda ana shunday psixologizmning ta’sirini o‘rganamiz. Yuqoridagi she’rda shunday jumlar mavjud:

“Intiqom ! Intiqom !” degan na’ralar

To‘lqinday quturib Temzadan oshar!

Shoir aynan intiqom so‘zini ikki bora qo‘llamoqda. Nega ? degan savol tug‘iladi. Chunki bu psixologiyaga bog‘liqdir. Agar insonni ham ikki bora ismini aytib chaqirsa e’tiborni tortadi. Demak, fikr o‘ta kuchli ekaniga ishoradir. Intiqom so‘zining lug‘aviy ma’nosi qasos, o‘ch deganidir. Endi esa na’ra so‘ziga to‘xtalamiz na’ra – qattiq ovoz bo‘kirish ma’nolarida keladi va yana asosan ormon qiroli she’rning o‘kirishiga nisbat berib aytiladi. To‘lqinning shiddat bilan toshishini esa hech yo‘q filmlar orqali tomosha qilgansiz. Umumiy ma’no chiqaradigan bo‘lsak, qasos o‘ti shu qadar kuchliki, to‘lqinlarning kuchi orol bo‘yidagi jamiki niholni nes-nobud qilishga kuchi yetgani kabi qasos o‘ti ham shu darajada kuchlidir deyilmoqchi.

Xulosa qilib aytganda, har bir lirik asarning ichida bizning ko‘zimizga ko‘ringan yoki ko‘rinmagan ma’lum xotira, og‘riq, lazzat, quvonch, afsus, achinish kabi kichik hikoyalar mavjud. Biz bularni to‘g‘ri anglay olishimiz va o‘quvchilarga haqiqatni butun holicha tushuntirishimiz kerak. Bu jarayonda bizga yuqoridagi metodlar ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva, N. (2021). “Tadqiqiy o‘qitish metodikasining adabiyot darslaridagi samaradorligi.” // *Ta’lim va rivojlanish jarayoni*, №2, 31–35-betlar.
2. Erkin Vohidov. (Turli yillarda). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.
3. G‘ulomov, A. (2005). *Adabiy tahlil asoslari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Jo‘rayev, S. (2016). *Adabiyot o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
5. Mamarasulov, Q. (2007). *Badiiy asarni tahlil qilish asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi.
6. Oripov, A. (2001). *She’rlar*. Toshkent: Yozuvchi.
7. Qurbonova, G. (2018). “Lirik asarlar va obrazli tafakkur: o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishda adabiyotning o‘rni.” // *Adabiy ta’limda innovatsiyalar*, №3, 45–50-betlar.
8. Qambarova, S. (2022). O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Toshkent. Mahalla va oila.
9. Xudoyberdiyev, E (2007) . Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Iqtisod- Moliya
10. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MOHIYATI, MAQSADI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. (2025). Kelajak o‘qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 701-710.
11. Tursunov Ramziddin Abdixalil-o‘g‘li. (2025). JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGI. TA’LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 324-330.

INNOVATSION TA’LIM JARAYONIDA KREATIVLIK FENOMONINING TAHLILI

Abduraimova Sohiba Karimkul qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-4695-764X>

e-mail: abduraimova.sohiba1@gmail.com



Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion ta’lim tizimida kreativlikning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda “kreativ o’qitish” (Creativity Teaching) va “kreativlik uchun o’qitish” (Teaching for Creativity) konsepsiyalarining farqli va o’zaro bog’liq jihatlari izohlanadi. Shuningdek, bu ikki yondashuvning pedagogik amaliyotda integratsiyalashgan holda qo’llanilishi o’qituvchi va o’quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o’rni yoritiladi. Maqolada kreativ ta’limning asosiy komponentlari – moslashuvchanlik, refleksiya, emotsional sezgirlik, metodik innovatsiyalar va mustaqil fikrlash – ijodiy pedagogikaning asosiy ko’rsatkichlari sifatida ko’rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, ijodiy o’qitish va ijodkorlik uchun o’qitishning uyg’unlashuvi zamonaviy o’qituvchining professional kompetensiyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Kalit so’zlar: innovatsion ta’lim, kreativlik, kreativ o’qitish, kreativlik uchun o’qitish, ijodiy pedagogika, refleksiya, mustaqil fikrlash, o’qituvchi kompetensiyasi.

ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF CREATIVITY IN THE INNOVATIVE EDUCATIONAL PROCESS

Abduraimova Sohiba Karimkul qizi

PhD Student (Basic Doctoral Candidate), Gulistan State University

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-4695-764X>

e-mail: abduraimova.sohiba1@gmail.com

Abstract. This article explores the concept of creativity within the framework of innovative education. It analyzes the theoretical foundations and practical implications of “Creative Teaching” and “Teaching for Creativity,” emphasizing their interdependence and complementary nature. The study highlights how the integration of these two approaches enhances both teacher and learner creativity. Core components of creative education — flexibility, reflection, emotional responsiveness, methodological innovation, and independent thinking — are identified as key indicators of creative pedagogy. The findings suggest that the synergy between creative teaching and teaching for creativity serves as a crucial factor in developing modern teachers’ professional competence.

Keywords: innovative education, creativity, creative teaching, teaching for creativity, creative pedagogy, reflection, independent thinking, teacher competence.

АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА КРЕАТИВНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Абдураимова Сохиба Каримкул кизи

Базовый докторант (соискатель степени PhD), Гулистанский государственный университет

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-4695-764X>

e-mail: abduraimova.sohiba1@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается концепция креативности в контексте инновационного образования. Анализируются понятия «креативное преподавание» (Creativity Teaching) и «обучение для развития креативности» (Teaching for Creativity), их различия и взаимосвязь. Подчеркивается, что интеграция этих подходов способствует развитию творческого потенциала как преподавателя, так и обучающегося. Выделены ключевые компоненты креативного образования: гибкость, рефлексия, эмоциональная отзывчивость, методические инновации и самостоятельное мышление. Результаты исследования показывают, что сочетание креативного преподавания и обучения для креативности является важным фактором формирования профессиональной компетентности современного педагога.

Ключевые слова: инновационное образование, креативность, креативное преподавание, обучение для креативности, творческая педагогика, рефлексия, самостоятельное мышление, педагогическая компетентность.

KIRISH

Jahonda so’nggi yillarda kreativ fikrlash inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Global tendensiyalar ta’lim tizimlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish — zamonaviy iqtisodiyot



ehtiyotlariga javob beruvchi innovatsion, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti ekanligini ko’rsatmoqda. Xususan, 2025-yilga kelib ish beruvchilarning 57 foizi kreativ fikrlashni o’z xodimlari uchun “bazaviy kompetensiya” sifatida baholagan bo’lsa, 66 foizi “ahamiyati ortib borayotgan eng muhim kompetensiyalar” qatoriga kiritgan (World Economic Forum, 2025). Bu ko’rsatkich kreativ tafakkurning nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki iqtisodiy raqobatbardoshlik omiliga aylanganini, ijodiy yondashuvning mehnat bozorida strategik ahamiyat kasb etayotganini, sun’iy intellekt va texnologik savodxonlik kabi yuqori texnologik ko’nikmalar bilan bir qatorda inson tafakkurining ijodiy komponenti ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko’rsatadi. Kreativ fikrlashning bu darajada o’sish dinamikasiga ega bo’lishi zamonaviy iqtisodiyotning faqat texnologik emas, balki g’oyaviy-innovatsion rivojlanishga ham tayanayotganini, shuningdek, yangi avlod mutaxassislarning muvaffaqiyati endilikda analitik fikrlash, moslashuvchanlik va texnik savodxonlik bilan bir qatorda ijodkorlik, noodatiy yondashuv va yangicha qarorlar ishlab chiqish qobiliyatiga ham bog’liqligini anglatadi. Shu bois, ta’lim tizimlarida kreativ tafakkurni shakllantirish, o’quvchilarda mustaqil, tahliliy-ijodiy yondashuvni rag’batlantiruvchi pedagogik strategiyalarni joriy etish bugungi ta’lim siyosatining eng dolzarb yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda[8].

ASOSIY QISM

Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimi o’qituvchidan nafaqat bilish, balki o’rgatishda ham ijodkor bo’lishni talab etadi. Shunday sharoitda “ta’limda kreativlik” tushunchasi tobora murakkablashib, ikki asosiy pedagogik yondashuv sifatida shakllanmoqda: “Kreativ o’qitish” (**Creativity Teaching**) va “kreativlik uchun o’qitish” (**Teaching for Creativity**). Bu ikki atama dastlab Bob Jeffer va Anna Craft tomonidan chuqur tahlil qilinib, farqili va o’zaro bog’liq jihatlari keltirib o’tilgan[5].

Kreativ o’qitish (Creativity Teaching)- Bu yondashuv o’qituvchining darsni tashkil etishdagi kreativlik darajasiga aloqador bo’lib, pedagogning improvizatsiya qilish qobiliyati, metodik moslashuvchanligi, emotsional ifodaliligi, didaktik innovatsiyalarni qo’llay olishi va shaxsiy uslubga ega bo’lishi orqali namoyon bo’ladi. Bunday yondashuv o’quvchilarda darsga bo’lgan qiziqishni uyg’otadi, ishtirokni faollashtiradi hamda darsni hayotiy va mazmunli qiladi.


Ushbu yo’nalishdagi asosiy tarkibiy komponentlar quyidagilardan iborat:

- Moslashuvchanlik va vaziyatga ijodiy yechim topish;
- Emotsional ta’sirchanlik va ilhomlantirish;
- Metodik innovatsiyalar (dramatizatsiya, integratsiya, o’yin texnologiyalari);
- Estetik va axloqiy sezgirlik;
- O’qituvchining shaxsiy ijodiy uslubi.

Kreativlik uchun o’qitish (Teaching for Creativity)-bu yondashuv ta’lim jarayonini o’quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, g’oyalarni ilgari surish va refleksiya qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yo’naltiradi. Unda o’quvchining ichki motivatsiyasi, intellektual faolligi va emotsional holati muhim omillar sifatida e’tiborga olinadi. Bu asosan o’quvchiga yo’naltirilgan pedagogikadir.

Mazkur yondashuv quyidagi tarkibiy qismlarni o’z ichiga oladi:

- Kognitiv faollik va mustaqil fikrlash;
- Refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish;
- O’quvchining emotsional-motivatsion holatini qo’llab-quvvatlash;
- Savol berish va muammoni hal qilish madaniyatini shakllantirish;
- Individual yondashuv va tanlov imkoniyatlarini yaratish (1-rasm).





1-rasm. Kreativ ta’limning tarkibiy komponentlari

Ushbu ikki yondashuv bir-birini inkor etmaydi, aksincha, kreativ ta’lim muhitini yaratishda bir-birini to’ldiruvchi ikki zaruriy asos sifatida qaralishi mumkin. Agar o’qituvchi darsni kreativ uslubda tashkil etsa (Creativity Teaching), bu o’z-o’zidan o’quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi (Teaching for Creativity). Shunday ekan, har ikki yondashuvni uyg’unlashtirgan pedagogik model, o’qituvchi va o’quvchining kreativligini birgalikda yuksaltiradigan samarali tizim bo’lishi mumkin. Kreativ ta’lim o’z navbatida 2 ga bo’lingan ekan, kreativ o’qitish va kreativlik uchun o’qitishning ham o’ziga xos komponentlari mavjud. Yuqorida ta’kidlaganimizdek bu komponentlar bir-birini inkor qilmagan holda, bir-birini to’ldiradi. Va natijada ta’limning kreativligini ta’minlaydi[1].

XULOSA

Innovatsion ta’lim sharoitida kreativlik inson kapitalining eng muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo’lmoqda. Ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish nafaqat o’quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi, balki o’qituvchining kasbiy o’sishini, uning metodik moslashuvchanligi va pedagogik tafakkurini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Tadqiqot shuni ko’rsatadiki, “kreativ o’qitish” (Creativity Teaching) va “kreativlik uchun o’qitish” (Teaching for Creativity) yondashuvlari o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, biri o’qituvchining shaxsiy ijodiy yondashuvini ifodalasa, ikkinchisi o’quvchining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan. Ularning integratsiyasi natijasida ta’lim jarayoni dinamik, interaktiv va refleksiv tus oladi.

Bunday uyg’unlashgan yondashuv o’qituvchidan quyidagi kompetensiyalarni talab qiladi: pedagogik yangiliklarga ochiqlik, o’quvchi shaxsini rivojlantiruvchi strategik fikrlash, muammoli vaziyatlarda kreativ yechim topa olish hamda o’qitish jarayonida emotsional va estetik sezgirlikni namoyon etish. Shu bilan birga, o’quvchilarda mustaqil fikrlash, tanlov imkoniyatiga ega bo’lish, savol berish madaniyatini shakllantirish va o’z faoliyatini baholay olish qobiliyatlari rivojlanadi. Demak, innovatsion ta’limda kreativlik konsepsiyasi o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi ijodiy hamkorlikka asoslanadi. Kreativ o’qitish — bu jarayonning boshlang’ich nuqtasi, kreativlik uchun o’qitish esa uning natijasidir. Ularning uyg’unlashuvi ta’limni insonparvar, samarali va zamonaviy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Abduraimova, S. (2025). TALABALARDA KREATIVLIKNING NAMOYON BO’LISHI, MAZMUN VA MOHIYATI. *Наука и инновация*, 3(1), 133–136.
2. Abduraimova, S. (2024). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MATHEMATICAL CREATIVITY IN EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(11), 575-579.
3. Abduraimova, S. K. (2024). BOSHLANG’ICH TA’LIMDA KREATIVLIK TUSHUNCHASINING TERMINOLOGIK TAHLILI. *Inter education & global study*, (10), 65-75.
4. Abduraimova, S. (2024). THE ESSENCE OF DEVELOPING CREATIVITY SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS: A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS. *Science and innovation*, 3(B5), 298-301.
5. Bob Jeffrey & Anna Craft (2004) Teaching creatively and teaching for creativity: distinctions and relationships, *Educational Studies*, 30:1, 77-87,
6. <https://doi.org/10.1080/0305569032000159750>
7. Qizi, A. S. K. (2024). TA’LIM TIZIMIDA KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID YONDOSHUVLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 16), 370-372.
8. The Future of Jobs Report 2025 : report / World Economic Forum. – Geneva : World Economic Forum, 2025. – 120 p. – ISBN 978-2-940631-90-2. – URL: <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2025/>
9. Taniberdiyev, A., & Abduraimova, S. (2024). DEVELOPING CREATIVITY IN THE MATHEMATICS TEACHING PROCESS: CONTENT AND ESSENCE. *Modern Science and Research*, 3(11), 278-281.

LEARNING ENGLISH THROUGH SIGN LANGUAGE IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS FOR DEAF AND HARD OF HEARING STUDENTS (IMPROVING COMMUNICATION SKILLS)

Nabiyeva Nodira Rustamjon qizi
nabiyevanodira427@gmail.com